

TEXNOLOGIYA FANIDAN AMALIY JARAYONLARDA O‘QUVCHILARNING IXTIROLIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

Kushvakova Yulduz - GulDu talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada Texnologiya fani jarayonida o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning o‘ziga xosligi undagi innovasion yondashuv asosida yoshlarga ta’lim berish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar; kasb olami, kreativ, texnik fikrlash, mehnatsevarlik, ijodkorlik, tadbirkorlik, uslub, kashfiyot, ixtiro, rasionalizatorlik, innovasion, effekt, funktsiya, dizayner, mehnat.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta’limning dunyo ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va taraqqiy ettirish jarayonlarining rivojlanishi ta’lim jarayonida Pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da Pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o‘zlashtirish zarurligi ko‘p marta takrorlanib, ularni o‘quv muassasalariga olib kirish zarurligi uqtirilgan. Respublikamizning taniqli olimlari mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan, ilmiy asoslangan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta’limtarbiya amaliyotida qo‘llashga intilmoqda.

Ta’lim jarayonida metodlarning pedagogik mohiyati "Maktab voyaga yetayotgan avlod tafakkurini shakllantirish ustaxonasidir, agar kelajakni qo‘ldan chiqarishni istamasang, maktabni qo‘lda mustahkam " degan edi fransuz yozuvchisi Anri Barbyus. Darhaqiqat, kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yosh avlodni har tomonlama mukammal etib tarbiyalash, ularga bilim berish, xaqiqiy fidoyilik va mustahkam iroda talab etadi.

Ta’lim sohasida olib borilayotgan islohatlar shunday xulosalar chiqarishimizga asos bo‘la oladi;

-Mamlakatimiz bo‘yicha umumta’limmaktablarida texnologiya darslaridan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish yetardi darajada emasligi.

-moddiy texnik baza (jixoz moslama,xom ashyo) deyarli ta’minlanmagan.

-o‘quv reja va dasturlarni mukammallashtirish.

-mutaxasis o‘qituvchilarning o‘zlari kasbiy malakaga ega bo‘lishligi.

-Texnologiya fanining qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarish asoslari yanalishlaridan samarali foydalanish xamkorlik loyixalar xamda kelishuvlarni yo‘lga qo‘yish.

-maktab ma'muriyatini ushbu yo'nalishga e'tiborini jalb qilish xamda texnologik jarayonlarida maktab manfaati yo'nalishidagi kelishuvlarni amalga oshirish.

-Metodik ta'minot, darslik o'quv va ishlab chiqarishni amaliy jarayoniga jiddiy e'tibor qaratishda xayotiylik prinsplariga murojaat qilish.

Eng kamida ushbu takliflar amalga oshiriladigan bo'lsa maqsadga erishish orzu bo'lib qolmaydi. Aynan bu masalalarni xoxlagan maktab misolida ko'rib chiqsak bo'ladi. Maktabda kompyuter sinfi bo'lish shart, Ximiya darslarida reaktivlar asbob uskunalar bo'lishi shart, jismoniy tarbiya darslarida sport maydonlari tennis, topklar va xakoz bo'lish kerakda, nima uchun texnologiya darslarida o'quv ustaxonasi tikuvchilik, pazandachilik xonalari bo'lmasligi kerak. Yoshlarni xayotga tayyorlashda texnologiya fani muxim ro'l egallaydi degan edi mashxur pedagog N.K.Krupskaya. Shunday qilib ushbu fanni xayotda muxim ekanligini asoslash uchun xattoki fanning nomini o'zgartirish asosida ushbu fanga bo'lgan e'tiborni oshirishga urinishlar bo'ldi shunga qaramay xaligacha fanning obro'si yetarli darajada emasligi insonni ajablantiradi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy, ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to'g'ri yo'l topa olish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda puxta o'zlashtirgan, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi. Ushbu pedagogik g'oya ta'lim tizimi oldiga:

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan huquqiy-demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va uslublarini ishlab chiqish hamda joriy etishni hal etish vazifalarini ko'ndalang qilib qo'ydi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va taraqqiy ettirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida Pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da Pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlanib, ularni o'quv muassasalariga olib kirish zarurligi uqtirilgan. Respublikamizning taniqli olimlari mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan, ilmiy asoslangan

pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'limtarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqda.

Ta'lim jarayonida metodlarning pedagogik mohiyati "Maktab voyaga yetayotgan avlod tafakkurini shakllantirish ustaxonasidir, agar kelajakni qo'ldan chiqarishni istamasang, maktabni qo'lda mustahkam" degan edi fransuz yozuvchisi Anri Barbyus. Darhaqiqat, kelajagimiz davomchilari bo'lmish yosh avlodni har tomonlama mukammal etib tarbiyalash, ularga bilim berish, xaqiqiy fidoyilik va mustahkam iroda talab etadi.

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir. Ta'lim nazariyasida o'qitish (ta'lim) metodlari markaziy o'rin egallaydi.

Pedagogning darsga tayyorgarlik ko'rishida metodlar va metodik usullarni tanlashi - bu ularning o'zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvozanatlashtirish demakdir. Pirovard natijasida o'quvchilar aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini ta'minlashga sharoit yaratiladi. To'g'ri qo'llanilgan metodlar ob'ektiv voqelikka oid bilimlarni chuqurlashtiradi va yaxlit hamda mashg'ulotning ilmiy- nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o'qitish metodlari ma'lum darajada bilish va kasbiy qiziqishini rivojlantirishga, mustaqil amaliy faolyatni faollashtirishga olib keladi. Ta'lim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materialini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi.

Ta'limning umumiy maqsadidan kelib chiqib o'qitishning ayni bosqichidagi tarbiyaviy va rivojlantiruvchi masalarni yechish zaruratni hisobga olgan holda ajratilgan variant tahlillanadi va baholanadi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malaka darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi.

Professor N.Saidahmedovning fikricha, «Texnologiya shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o'zida mujassamlashtirgan va yakuniy natijani ta'minlaydigan pedagogik faoliyatdir». Texnologiya tushunchasi regulativ (tartibga solib turuvchi) ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, erkin ijod qilishga undaydi:

- samarador o'quv-bilish faoliyatining asoslarini topish;

- uni ekstensiv (kuch, vaqt, resurs yo'qotishga olib keladigan samarasiz) asosdan ko'ra intensiv (jadal), mumkin qadar ilmiy asosda qurish;
- talab etilgan natijalarni kafolatlaydigan fan va tajriba yutuqlaridan foydalanish;
- o'qitish davomida tuzatishlar ehtimolini loyihalash metodiga tayangan holda yo'qotish;
- ta'lim jarayonini yuqori darajada axborotlashtirish va zaruriy harakatlarni algoritmlash;
- texnik vositalarni yaratish, ulardan foydalanish metodikasini o'zlashtirish va boshqalar.

Texnologiya murakkab jarayon sifatida qator o'qitish bosqichlaridan, o'z navbatida, bu bosqichlarning har biri o'ziga xos amallardan iborat bo'ladi. Amal - o'qituvchining sinfda mavzu bo'yicha o'quv elementlarini tushuntirish borasidagi bajarilgan ishlar yig'indisi bo'lib, o'qitish jarayonining shu bosqichida tugallangan qismini tashkil etadi.

O'qitish metodlari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda o'quvchilar qanday ish harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Endilikda o'qituvchi akter emas, balki rejisyor vazifasini bajaradi.

Innovatsion metodlar o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir. O'qituvchi insoniyat tajribasida to'plangan bilimlar bilan hali bu bilimlarga ega bo'lmagan bolaning ongi o'rtasida vositachilik rolini o'naydi. Bola ijtimoiy-tarixiy tajribadagi barcha bilim boyliklarini ta'lim olmasdan, o'qituvchisiz, mustaqil holda o'zi tizimli tarzda o'zlashtira olmaydi. O'qituvchining eng katta xizmati o'quv materialini o'zlashtirishning muayyan yo'l, usullarini belgilashda namoyon bo'ladi. Dars jarayonining metodi o'quv materialini bayon qilishga va uni bolalar yaxshi bilib olishga qaratilgan faoliyatning yo'li, usulidir. Ta'lim jarayoni va natijalari o'qituvchining o'quvchilar bilish faoliyati harakatini belgilovchi ish usulariga bog'liqdir. Shu sababli doimo pedagogikada ta'lim metodlariga o'qituvchining ish usullari va o'quvchilarning bilish faoliyati usullari deb qaraladiki, bu usullarning har ikkalasi ham o'quv vazifalarini bajarishga qaratilgandir.

Texnologik ta'limda innovatsion metodlar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining xususiyatini belgilaydi, ta'limning maqsadi va mazmuniga bog'liq bo'ladi. Ta'lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog'liqdir, ya'ni ular falsafiy fikrlarni, ta'lim jarayonining mohiyati va tamoyillarini to'g'ri anglash natijasidir. Innovatsion metodlar o'quv materialini mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantiqiga bog'liqdir. O'quv materialining mazmuni tobora

chuqurlashib, murakkablashib va ilmiy tus olib bormoqda, shuning uchun talim metodlari ilmiy bilishning mantiqi va metodlariga tobora ko'proq bog'liq bo'lib qolmoqda. Har bir metod psixologik asosga ega. Bolaning o'quv materialini o'zlashtirishdagi yosh imkoniyatlari va uning etuklik darajasi o'qitish va o'qish usullariga juda katta ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning fikrlash faoliyatini va shaxsiy xususiyatlarini yaxshi bilish o'qitishning samaraliroq usullarini topish imkonini beradi.

Biz foydalanadigan metodlar o' sayotgan organizmning anatomik-fiziologik, biologik xususiyatlariga ham bog'liqdir. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil qilishda ularning yoshiga xos biologik o'sishni hisobga olish kerakki, ta'limning ko'pgina jihatlari ish qobiliyati, charchash, ijodiy kayfiyat, jismoniy sog'liq, maktabdagi gigiena sharoitlari aynan shu o'sishga bog'liqdir. Ta'lim metodlari nazariy jihatdan yaxshi asoslangan bo'lishi, pedagogik nazariyadan kelib chiqishi kerak, ammo, ta'lim metodlari amalda qo'llanilmasa, foydasiz bir narsaga aylanadi. Amaliy yo'llanganligi ta'lim metodlarining eng muhim tomonlaridan biridir. Bu metodlarda texnologiya fani amaliyoti bilan bevosita bog'langan. Nazariya qancha chuqur va ilmiy bo'lsa, ta'lim metodlari o'shancha samarali bo'ladi. Pedagogik qarashlarda nazariya qancha kam ifodalangan bo'lsa, ta'lim metodlari bu nazariyaga shuncha kam bog'liq bo'ladi.

Texnologiya fani maktablar va o'qituvchilarning ilg'or ish tajribalarini umumlashtiradi, an'anaviy ta'limning ilmiy asoslarini ko'rsatib beradi, o'qitishning zamonaviy, samarali metodlarini ijodiy ravishda izlab topishga yordam beradi. O'qitish metodlarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash ancha oddiy bo'lib, ular maktab amaliyotida keng tarqalgan. Bu belgi bo'yicha metodlar quyidagi uch guruhga bo'linadi:

❖ Og'zaki metodlar (bilimlarni so'z bilan bayon qilish, suhbat, darslik ma'lumotnoma va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash).

❖ Ko'rsatmali metodlar rasmlar, namoyishlar, kuzatishlar.

❖ Amaliy metodlar (mashqlar, laboratoriyadagi amaliy ishlar).

Yuqoridagilar ma'lum darajada shartlidir, chunki mazkur metodlarning hammasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularni doim ham aniq chegaralab bo'lmaydi. O'qituvchi darsga tayyorlanishda va uning uchun eng muvofiq metodlarni tanlashda aynan shu metodlarning bajarilishi mumkinligini va ularning strukturasi hisobga olib, shu asosida, masalan, rag'batlantirish, tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalarini kuchaytiruvchi murabbiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Xarakteristik strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quraylik. -T.: "O‘zbekiston", 2017. - 488 b.
3. Ishmuxamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. T.2004
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi.: Nasaf. 2000.
5. Saydahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). -T.: Moliya, 2003.
6. Ta’limning faol usullari. Uslubiy tavsiyalar. TVPQTMOI. T.2004.
7. Texnologiya ta’limini rivojlantirish strategiyalari moduli buyicha uquv-uslubiy majmua. Toshkent-2021
8. A.Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. "Ta’limda innovasion texnologiyalar" T.: 2008. - 128 b, 2022